


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

70611006 – Audio-videotexnologiyalar magistratura mutaxassisligining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “1” avgust dagi 277 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

t/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	9
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma'lumotlar	10
	Kelishuv varag'i	11

1. Umumiy tavsifi

70611006 – Audio-videotexnologiyalar magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi oliy ta'limning dasturi amalga oshiriladi. Mutaxassislik dasturining o'qish davomiyligi 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70611006 – Audio-videotexnologiyalar magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi oliy ta'lim muassasalari uchun majburiy talablar majmuasini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi mutaxassislik bo'yicha tahsil olgan magistr talabalari;

bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari, ulaming ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Televizion ishlab chiqarish va televizion studiyalarni tashkil etish, audio-videoni qayta ishlash, videograflarni modellashtirish, tahrirlash muharrirlari va boshqa maxsus texnik ta'minoti foydalanish. Kino loyihalarini yaratish, kinostudiyalarni tashkil etish, ovoz yozish ko'nikmalari, montaj jarayoni va maxsus effektlarni tashkil etish. Media ishlab chiqarish va raqamli media: Internet-video, oqim platformalari, multimedia taqdimotlari va vizual effektlarni o'z ichiga olgan raqamli media tarkibini yaratish va qayta ishlash sohalari. Yangi audio va video texnologiyalarni ishlab chiqish, signallarni qayta ishlash algoritmlari, apparat va

dasturiy ta'minotni ishlab chiqish bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot loyihalari sohalari. Sahna va ovoz uskunalari: teatr va kontsert yoritgichlari, ovozli va musiqiy tadbirlarni tashkil etish, shu jumladan audio va video tizimlarni loyihalash va Audio-videotexnologiyalarsohasida kompleks masalalarni yechish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qabrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatida.

Davlat va nodavlat tashkilotlarida.

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlarida.

Faoliyati axborotni himoyalash bilan bog'liq bo'lgan idora va tashkilotlarda.

Vazirliklar va idoralar kompyuter va axborot texnologiyalari markazlarida.

Davlat va mahalliy boshqaruv organlari, mudofaa, ichki ishlar va xavfsizlik organlarida kompleks masalalarni yechishda.

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarida, professional ta'lim muassasalarida;

Ilmiy tadqiqot va pedagogik jarayonlar.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyati;
- ekspluatatsiya faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- eksperimental – tadqiqot faoliyati;
- axborot-tahliliy faoliyati;
- ishlab chiqarish – boshqaruv faoliyati.

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70611006 – Audio-videotexnologiyalar mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

respublika va xorijda chop etilgan kompyuter texnologiyalariga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini tadqiq etish;

mutaxassislikka mos ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etishi;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqishi;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirish va tahlil qilishi;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda qatnashish hamda faol ishtirok etishi;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat yuritishi;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan va o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi;

o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha modellar, algoritmlar, usullarni tadqiq qilishi va ishlab chiqishi;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borishi lozim.

Ekspluatatsiya faoliyatida:

media va kontentni boshqarish, media kutubxonalarini tashkil etish va boshqarish, audio va video fayllarning sifati va yaxlitligini nazorat qilish, ularni arxivlash va tiklash;

professional audio va video uskunalardan foydalangan holda kontsertlar, sport tadbirlari, konferentsiyalar va boshqa tadbirlarni o'z ichiga olgan media mahsulotlarni tayyorlash;

audio va video tizimlar orqali uzatiladigan ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash, shuningdek ommaviy axborot vositalariga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

loyihalarni rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishni o'z ichiga olgan audio va video texnologiyalarida loyihalarni boshqarish usullari va vositalarini o'rganish;

audio-vizual tizimlar va uskunalarni texnik qo'llab-quvvatlash va texnik xizmat ko'rsatish tizimlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

rivojlanish strategiyasini o'rganish va audio va video sohasida yangi texnologiyalarni qo'llash, bozor rivojlanishini bashorat qilish;

audiovizual mahsulotlar sifatini nazorat qilish va ta'minlash, jarayonlar va protseduralarni standartlashtirish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish.

Eksperimental - tadqiqot faoliyatida:

tovush va tasvir sohasidagi asosiy nazariy jihatlarni o'rganish, akustika, signallarni qayta ishlash, ma'lumotlarni siqish, kompyuter grafikasi va video kodlashda yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqilishini bilish;

yangi tushunchalar, algoritmlar va texnologiyalarni sinab ko'rish uchun laboratoriya va tajribalarini o'tkazish, audio-vizual texnologiyalar qurilmalari va

tizimlarining prototiplarini ishlab chiqilishini bilish;

audio va video texnologiyalardagi jarayonlarni tahlil qilish va optimallashtirish uchun matematik modellar va kompyuter simulyatsiyalaridan foydalanish, shu jumladan akustik maydonlarni modellashtirish, signallarning harakati va boshqalar haqidagi ma'lumotlar bilish;

audio-vizual tizimlar va texnologiyalar sifatini sinash va baholash usullarini ishlab chiqish, sinov natijalarini tahlil qilish va ishlash va sifatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilishini bilishi;

audio va video texnologiyalari, shu jumladan yangi qurilmalar, dasturiy ta'minot va xizmatlarni yaratish bo'yicha innovatsion loyihalarini bilishi lozim.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ishlab chiqarish - boshqaruv faoliyatida:

audiovizual mahsulotlarni ishlab chiqarishda operatsiyalarini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish, ish oqimlarini optimallashtirish, inventarizatsiyani boshqarish, uskunalarni joylashtirish;

audiovizual mahsulotlar uchun sifat standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, mahsulotlarning standartlarga muvofiqligini nazorat qilish, sertifikatlash va litsenziyalash jarayonini boshqarish;

ishlab chiqarish siklining barcha bosqichlarida sifatni nazorat qilish va ta'minlash, shu jumladan sifatni tekshirish va tahlil qilish tartib-qoidalarini ishlab chiqish;

maqsadlarni aniqlash, xatarlarni baholash, byudjetni boshqarish va loyiha vaqtini o'z ichiga olgan audio-video texnologiyalari loyihalarini boshqarish;

biznesni tahlil qilish va strategik rejalashtirish, audiovizual texnologiyalar bozorini tahlil qilish, rivojlanish strategiyalari va marketing rejalarini ishlab chiqish, talab va tendentsiyalarni bashorat qilish bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi kerak.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

ilmiy va ilmiy-texnikaviy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

o'zining individual bilimlariga tayangani holda ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy va ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyatida foydalana olishi, asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

ilmiy va ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy va ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyatida foydalana olishi;

xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;

axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishi;

o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;

elektron o'qitish usullarini egallash;

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlashi va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

ta'lim, ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyati sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;

patent olish uchun ish me'yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda ma'lumotlar ilmini qo'llay bilishi;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha ma'lumotlar ilmidan foydalanishda, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tkazishni qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot - umumkasbiy va mutaxassislik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ishlab chiqarish hamda ilmiy tadqiqot jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi.

Mutaxassislik bo'yicha ilmiy amaliyot o'tkaziladi.

4. Fanlar katalogini tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy Yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1200	40	1-3
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	AIA1104	Axborotlarni izlash va ajratib olish	120	4	1
1.03	ILB1204	Innovatsiya va loyihalarni boshqarish	120	4	2
1.04	ALT1204	Algoritmarni loyihalashtirish va tahlil qilish	120	4	2
1.05	MFO1304	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	3
1.06	IAV1206	Intellektual audio, video tizimlar	180	6	2
1.07	KKT1306	Kompyuter ko'rishi va timsollarni tanib olish	180	6	3
1.08	IPI1108	Ilmiy pedagogik ish	240	8	1,2,3
2.00		Tanlov fanlar	480	16	1,3
		Jami:	1680	56	1-3
Kvalifikatsiya		Audio-video texnologiyalar muhandisi, pedagog-tadqiqotchi			
	ILA1412	Ilmiy amaliyot	360	12	4
	MDH1152	Magistrlik dissertatsiyasini tayorlash	1560	52	1-4
		Jami:	1920	64	1-4
		Jami	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning asosiy o'quv reja va o'quv dasturi, qonun, qoida, qaror, oliy ta'lim, o'quv jarayoni, magistratura, konsalting, loyiha-qidiruv, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, ilmiy amaliyoti, magistrlik dissertatsiyasi, baholash, sifat nazorat, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, profil, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, ilmiy faoliyat, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, ma'lumotlar ilmi, audio-video texnologiyalar, audio, videoga ishlov berish, intellektual audio, video tizimlar, audio-video ma'lumotlarni qayta ishlash va siqish usullari.

Ishlab chiquvchi, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshket axborot texnologiyalar universiteti



Rektor B. Maxkamov

2024 yil « 14 » iyun

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

**O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti**



Direktor D.M. Boltabayev

Rektor N.B. Sayfullayev

2024 yil « 14 » avgust

2024 yil « 14 » iyun

M.O.:

M.O.:

“O'zbekfilm” kinokonserni

**“Respublika teleradiomarkazi” DM
Bosh direktorining birinchi o'rinbosari,
Toshkent telemarkazi**

Direktor B. Adilov

2024 yil « 13 » iyun

Bosh direktor N. Muratov

M.O.:

M.O.: